



DEN BRAUNNING “RAQAMLI QAL’A” ASARINING TAHLILI

Norbadalova Kumush Ilhom qizi

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini tashkil etish
hamda boshqarish” ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Den Braunning “Raqamli qal’a” asari tahlil qilinadi. Asarda axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va davlat nazorati kabi zamonaviy dolzarb masalalar yoritilgan. Asar qahramonlarining psixologik portretlari, texnologik taraqqiyotning insoniyatga ta’siri kabi jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli qal’a, Den Braun, axborot xavfsizligi, NSA, shifrlash, texnologiya.

Abstract: This article analyzes Dan Brown’s work “Digital Fortress”. The work covers such contemporary issues as information security, privacy, and state surveillance. The psychological portraits of the characters in the work and the impact of technological progress on humanity are analyzed.

Keywords: Digital Fortress, Dan Brown, information security, NSA, encryption, technology.

Kirish. Den Braunning “Raqamli qal’a” asari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Texnologiyalar rivoji bilan axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va davlat nazorati masalalari yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada asarning zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liqligi, asardagi qahramonlarning ruhiy kechinmalari va muhim g‘oyalari yoritiladi.

Zamonaviy texnologiyalar, raqamli aloqa, sun’iy intellekt va axborot xavfsizligi kabi tushunchalar hozirgi davr jamiyatining ajralmas qismiga aylangan. Dunyoda har soniyada millionlab ma’lumotlar uzatiladi, shaxsiy yozishmalar, moliyaviy operatsiyalar, strategik axborotlar internet tarmog‘i orqali harakatlanadi. Bunday axborot oqimi esa albatta, uni boshqarish, himoyalash va kerak bo‘lsa, nazorat qilish zaruratini tug‘diradi. Aynan shunday murakkab, global muammolarni badiiy tilda ifodalagan yozuvchilardan biri – Den Braundir. Uning 1998-yilda chop etilgan “Raqamli qal’a” nomli asari raqamli dunyodagi xavf va ehtimollarni, insoniyatga tahdid soluvchi texnologik ixtirolarni badiiy talqinda yoritgan muhim asarlardan biridir.





Roman voqealari AQShning yirik razvedka tashkiloti – NSA (Milliy Xavfsizlik Agentligi) shifrlash bo‘limida kechadi. Asar markazida iqtidorli matematik va kriptograf mutaxassis Syuzan Flecher hamda uning sevgilisi, filolog Devid Bekker turadi. NSA tomonidan aniqlangan “Raqamli qal’a” nomli shifrlash algoritmi butun dunyo uchun yangi xavf manbaiga aylanadi. Bu algoritm oddiy kod emas – uni hech qanday usul bilan buzib bo‘lmaydi. Oddiy ko‘rinishda bu insoniyatning axborot erkinligi sari tashlangan katta qadamdek tuyulsa-da, aslida u global miqyosdagi nazorat inqirozining boshlanishi bo‘lishi mumkin. Roman davomida qahramonlar bir necha bor axloqiy, kasbiy va shaxsiy tanlovlar oldida qoladi. Ular nafaqat texnologik muammoni yechish, balki inson hayotini, jamiyat tinchligini va kelajak avlod taqdirini hal qiluvchi qarorlar qabul qilish zaruriyatiga duch keladilar.

Den Braun bu asar orqali o‘quvchini nafaqat sarguzashtli voqealar ichiga tortadi, balki zamonaviy dunyodagi eng muhim masalalardan biri – axborot erkinligi va shaxsiy hayot daxlsizligi o‘rtasidagi murakkab ziddiyatga jiddiy e’tibor qaratadi. Texnologik taraqqiyot insoniyatni yuksaltiradimi yoki nazorat ostiga oladimi? “Raqamli qal’a” aynan shu savolga kitobxonni o‘ylashga majbur qiladi.

Asarda NSA (National Security Agency – Milliy Xavfsizlik Agentligi) – AQShning eng yirik razvedka tashkilotlaridan biri bo‘lib, axborotlarni to‘plash va shifrlash bilan shug‘ullanadi. Asarda NSAning ichki siyosati va faoliyati yoritilgan. Ayniqsa, inson omili va shaxsiy hayotning daxlsizligi muhim masala sifatida ko‘rsatilgan.

Qahramonlarning ichki dunyosi: Syuzen Flecher: Syuzen – NSA shifrlash bo‘limining rahbari bo‘lib, aql-zakovati va qat’iyati bilan ajralib turadi. U texnologiyalar ustidan insonning ustunligini himoya qilishga intiladi. Juda zukko ayol. Strathmorening o‘ng qo‘li. Uning barcha ishlarida yordamlashadi. Insonlarni bitta so‘zidan ularning nima demoqchi bo‘lganini anglab oladi.

Devid Bekker: Devid – tilshunoslik professori. Texnologik bilimlari cheklangan bo‘lsa-da, insoniy qadriyatlari bilan voqealarga yangicha yondashuv olib kiradi. Har qanday qiyin vaziyatda ilgor yechimlar topa oladi. O‘ziga yuklatilgan topshiriqlar qanchalik qiyin bo‘lmasin har bir ishni a’lo darajada yakunlab, ma’suliyat bilan yondashadi.

Trevor Strathmore: NSA bo‘limi rahbari Strathmore – texnologiyaga mutlaq ishonchning ramzi. Asarda uning ushbu yondashuvi tanqidiy jihatdan ochib beriladi. O‘z ishining jonkuyari desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki shaxsiy hayoti ostun-ustun bo‘layotganiga qaramay ishidan voz kechmaydi. Barcha fikri hayolini ishiga qarata oladigan inson. Ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan tezkor rejalar ishlab chiqadi. Asarning boshida o‘quvchi bu asar qahramonini ijobiy qahramon sifatida





kòrishi mumkin. Strathmore qahramon kabi kòrinsada, ammo asar davomida u axloqiy chegaralarni buzadi va o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'ygani ayon bo'ladi. Strathmore o'z rejalarini amalga oshirish uchun odamlarni aldashi, manipulyatsiya qilishi mumkin. Asarda u o'zining idealistik qarashlari sabab xavfli va axloqiy jihatdan shubhali qarorlar qabul qiladi. Bu obraz haqida xulosa qilib aytadigan bòlsam, murakkab, ko'p qirrali inson sifatida tasvirlangan. U zamonaviy texnologiyalar davridagi xavfsizlik va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi murakkab muvozanatni, axloqiy muammolarni aks ettiradi.

Asarning zamonaviy dolzarbligi: Bugungi axborotlashgan jamiyatda shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi va kiberhujumlar masalasi dolzarb. Shu nuqtai nazardan, asar insoniyatning asosiy dushmanlari – texnologik totalitarizm va axborot manipulyatsiyasiga qarshi ogohlantiruvchi asar sifatida o'qiladi.

Muallifning uslubi va tili: Den Brauning hikoya qilish uslubi sodda va tushunarli. Murakkab texnologik tushunchalar ham oson va ravon bayon etilgan. Syujetning dinamikasi esa o'quvchini o'ziga tortadi.

Xulosa. “Raqamli qal'a” asari texnologiyalar taraqqiyoti sharoitida insoniy qadriyatlarining abadiy ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Qahramonlar ruhiy kechinmalari, syujetning dinamikasi va zamonaviy muammolar bilan bog'liqligi asarni bugungi kunda ham muhim qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Braun, D. Raqamli qal'a. – Toshkent: XYZ nashriyoti, 2020.
2. Ahmadov, A. “Axborot xavfsizligi muammolari” // Zamonaviy texnologiyalar jurnali, 2021.
3. Karimov, B. “Shaxsiy hayot daxlsizligi va axborot muhofazasi” // Ilmiy maqolalar to'plami, 2022.

